



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "DAVLAT BOJI" TO'G'RISIDAGI QONUNIGA QANDAY O'ZGARTIRISH KIRITILDI?

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toyloq

tumanlararo sudi raisi

G'afurov Nodirjon Nazrullayevich

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining Davlat boji to'g'risidagi qonuniga 2025 yil 20 fevralda kiritilgan o'zgartirishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat, boj, qonun.

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 20-fevraldag'i O'RQ-1032 qonuni bilan "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, unga ko'ra Xorijiy tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish uchun undiriladigan Davlat boji miqdoriga aniqlik kiritildi.

O'zbekiston hukumati investitsiyalarni jalb qilish uchun turli tartib va mexanizmlarni yaratgan bo'lib, chet el tijorat tashkilotlari vakolatxonalari uchun akkreditatsiya qilish Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-fevraldag'i 76-son talablari doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston iqtisodiyotining global integratsiyasini kuchaytirish, chet el kapitalini jalb qilish va tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Chet el tijorat tashkilotlari vakolatxonalari O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat olib borish, savdo, investitsiyalar va xizmatlar sohasidagi aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chet el tijorat tashkilotlari vakolatxonalari o'z faoliyatini amalga oshirishda davlatning iqtisodiy va savdo siyosatiga muvofiq, mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashda yordam beradi.

Vakolatxona vakolatlari chet el kompaniyalarining O'zbekistondagi biznes faoliyatlarini amalga oshirish, investitsiya va savdo imkoniyatlarini kengaytirish imkoniyatini yaratadi.



Bunda, kompaniyaning huquqiy maqomi, xizmatlar va mahsulotlar bo‘yicha yangi bozorlar ochilishi, import-eksport operatsiyalarining samarali yo‘lga qo‘yilishi va boshqa ko‘plab iqtisodiy foydalar taqdim etiladi.

Qonunga tegishincha issiqlik va elektr energiyasini yetkazib berish yuzasidan xizmatlar uchun to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni undirish to‘g‘risidagi da’volar, arizalar va shikoyatlar bilan fuqarolik ishlari bo‘yicha va iqtisodiy sudsiga murojaat qilinganda issiqlik va elektr energiyasini yetkazib beruvchilar davlat bojini to‘lashdan ozod etilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Ularning talablarini qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad etilgan taqdirda mazkur davlat bojini issiqlik va elektr energiyasini yetkazib beruvchilardan undirish belgilanmoqda.

Chet el tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini O‘zbekiston hududida akkreditatsiya qilishda davlat bojini to‘lash har bir yil uchun amalga oshirilishini aniqlashtiruvchi o‘zgartirish kiritilmoqda. Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.